QASHQADARYO VILOYATI KOSON TUMANI HOKIMINING

QARORI

2025-yil 19-fevral | 46-4-60-Q/25 | Koson tuman hokimligi

Qashqadaryo viloyat hokimining 2025-yil 3-fevraldagi 51-4-0-Q/25 sonli qarori haqida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21-dekabrdagi “Mahalla institutining jamiyatdagi rolini tubdan oshirish va uning aholi muammolarini hal etishda birinchi bo‘g‘in sifatida ishlashini ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-209-son farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21-dekabrdagi “O‘zbekiston mahallalari uyushmasi faoliyatini yo‘lga qo‘yish va mahallalarda boshqaruv tizimini takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-402-son va Qashqadaryo viloyat hokimining 2025-yil 3-fevraldagi “Viloyatdagi mavjud mahalla fuqarolar yig‘inlariga tegishli bo‘lgan hamda ularning foydalanishidagi yer va bino inshootlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish ishlarini tashkil etish to‘g‘risida”gi 51-4-0-Q/25-sonli qarorlariga muvofiq, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-,211- moddalariga asosan

QAROR QILAMAN:

1.Qashqadaryo viloyat hokimining 2025-yil 3-fevraldagi “Viloyatdagi mavjud mahalla fuqarolar yig‘inlariga tegishli bo‘lgan hamda ularning foydalanishidagi yer va bino inshootlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish ishlarini tashkil etish to‘g‘risida”gi 51-4-0-Q/25-sonli qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2.Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari H.Nazarov va O‘zbekiston mahallalar uyushmasi tuman bo‘limi (U.Ochilov) 3 kun muddatda tumandagi 78 ta mahalla fuqarolar yig‘inlariga tegishli hamda ularning foydalanishida bo‘lgan yer va bino inshootlari 1-ilovaga muvofiq mahalla fuqarolar yig‘inlari nomiga davlat ro‘yxatidan o‘tkazish choralarini ko‘rsin.

3.Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari H.Nazarov mutasaddi tashkilotlar bilan birgalikda 2-ilovaga muvofiq o‘z binosiga ega bo‘lmagan 4 ta mahalla fuqarolar yig‘iniga amaldagi qonunchilik talablari asosida bino va inshootlar ajratilishini ta’minlasin.

4. Davlat kadastrlari palatasi tuman filiali (U.Xayitov) va O‘zbekiston mahallalar uyushmasi tuman bo‘limi (U.Ochilov) buyurtmasiga asosan 78 ta mahalla fuqarolar yig‘iniga tegishli va ularning foydalanishida bo‘lgan yer va bino inshootlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazsin.

5. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari H.Nazarov zimmasiga yuklansin.

Koson tuman hokimi **A.Boykaraev**

Koson tuman hokimining
2025-yil 19-fevraldagi
46-4-60-Q/25-son qaroriga
1-ilova

Tumanda mavjud mahalla fuqarolar yig‘inlarining bino va inshootlari to‘g‘risida
M A ’ L U M O T

№	Tuman nomi	Jami MFY soni	O‘z binosiga ega bo‘lmagan	O‘z binosiga ega	*Shundan*	
					Yer maydoni (ga)	Qurilish osti maydoni (kv.m.)
1	Koson tumani	78	4	74	4,2	13575

Koson tuman hokimining
2025-yil 19-fevraldagi
46-4-60-Q/25-son qaroriga
2-ilova

Tumanda mahalla fuqarolar yig‘inlariga tegishli hamda ularning foydalanishida bo‘lgan yer va bino inshootlari ro‘yxati

№	Tuman nomi	Mahalla nomi	Umumiy yer maydoni *(ga)*	Qurilish osti maydoni *(kv,m,)*
Tuman jami			**4,2**	**13575**
1	Koson tumani	Ayronchi MFY	0,0225	114
2	Koson tumani	Alachabob MFY	0,0248	248
3	Koson tumani	Arabxona MFY	0,0429	259
4	Koson tumani	Araliq MFY	0,1394	392
5	Koson tumani	Birdamlik MFY	0,0225	86
6	Koson tumani	Bog‘i shamol MFY	0,02	90
7	Koson tumani	Boygundi MFY	0,0225	94
8	Koson tumani	Boyterak MFY	0,223	128
9	Koson tumani	Gala MFY	0,019	98
10	Koson tumani	Gulbog‘ MFY	0,85	618
11	Koson tumani	Guliston MFY	0,0225	89
12	Koson tumani	Gulobod FUUBO	0,036	358
13	Koson tumani	Darcha MFY	0,4642	361
14	Koson tumani	Dustlik MFY	0,0225	86
15	Koson tumani	Jizzalik MFY	0,14	300
16	Koson tumani	Zamin MFY	0,03	97
17	Koson tumani	Istiqbol MFY	0,0243	130
18	Koson tumani	Istiqlol MFY	0,02	104
19	Koson tumani	Koson FUUBO	0,0131	131
20	Koson tumani	Qozoqli MFY	0,03	98
21	Koson tumani	Qorabayr MFY	0,035	106
22	Koson tumani	Quybog‘ MFY	0,0263	118
23	Koson tumani	Quyi obron MFY	0,0206	206
24	Koson tumani	Qung‘irtog‘ MFY	0,0374	374
25	Koson tumani	Lolazor MFY	0,025	97
26	Koson tumani	Maydayobu MFY	0,035	181

27	Koson tumani	Mash’al MFY	0,009	90
28	Koson tumani	Mesit MFY	0,0244	194
29	Koson tumani	Mugjagul MFY	0,0455	300
30	Koson tumani	Mudin MFY	0,0225	0,0225
31	Koson tumani	Mulali MFY	0,12	144
32	Koson tumani	Navbaxor MFY	0,0144	144
33	Koson tumani	Navnixol MFY	0,0225	114
34	Koson tumani	Navruz MFY	0,03	105
35	Koson tumani	Nartibaland MFY	0,0203	134
36	Koson tumani	Nartichuqur MFY	0,07	293
37	Koson tumani	Nekuz FUUBO	0,0192	0
38	Koson tumani	Nixol MFY	0,009	90
39	Koson tumani	Nurafshon MFY	0,0238	94
40	Koson tumani	Obixayot	0,03	0,0084
41	Koson tumani	Obod MFY	0,0339	339
42	Koson tumani	Paxtazor mfy	0,022	88
43	Koson tumani	Pistali MFY	0,033	135
44	Koson tumani	Pudina MFY	0,045	150
45	Koson tumani	Ravot MFY	0,1394	392
46	Koson tumani	Raximsufi MFY	0,03	90
47	Koson tumani	Regzor MFY	0,0244	136
48	Koson tumani	Saripul MFY	0,0216	64
49	Koson tumani	Surxon MFY	0,067	312
50	Koson tumani	Taraqqiyot MFY	0,0163	151
51	Koson tumani	Tinchlik MFY	0,0317	629
52	Koson tumani	Toshkuprik MFY	0,045	150
53	Koson tumani	Uyrot MFY	0,03	0
54	Koson tumani	O‘rta obron MFY	0,04	109
55	Koson tumani	Ushoktepa MFY	0,02	96
56	Koson tumani	Farovon MFY	0,006	60
57	Koson tumani	Xalima MFY	0,0135	71
58	Koson tumani	Xalqobod MFY	0,084	438
59	Koson tumani	Xujakuduk MFY	0,0225	109
60	Koson tumani	Chiroqchi MFY	0,028	280
61	Koson tumani	Chorbog‘ MFY	0,1252	435
62	Koson tumani	Sherbek MFY	0,0316	310
63	Koson tumani	Shirinobod MFY	0,02	0

64	Koson tumani	Shirintepa MFY	0,0339	339
65	Koson tumani	Esaboy MFY	0,0391	190
66	Koson tumani	Etak MFY	0,01	100
67	Koson tumani	Yuksalish MFY	0,053	344
68	Koson tumani	Yuqori Maydayobu MFY	0,02	0
69	Koson tumani	Yuqori Mudin MFY	0,0225	106
70	Koson tumani	Yuqori obron MFY	0,096	452
71	Koson tumani	Yakkasaroy MFY	0,03	103
72	Koson tumani	Yuqori Arabxona MFY	0,0225	98
73	Koson tumani	Yangiobod MFY	0,03	90
74	Koson tumani	Yangi O‘zbekiston MFY	0,0937	544